



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

3. O‘zR Intellektual Mulk agentligidan “Xiva minoralarini va me‘moriy yodgorliklarini tiklashda qo‘llanilgan zilzilabardosh elementlar” mavzusida №000899 raqamli mualliflik guvohnomasi. 2018 y.

XORAZM ME‘MORCHILIGIDA BEZAK SAN’ATI TARIXIY-BADIIY TAHLIL VA TAMIRLASH MUAMMOLARI.

Atoshov Sanjar Bahodirovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrasi dotsenti, arx.f.f.d (PhD)

Annotatsiya

Maqolada arxitekturaviy yodgorliklarda qo‘llanilgan bezaklarning o‘ziga xos jihatlari va ularni jahon merosi doirasida tutgan o‘rni to‘g‘risida fikr boradi.

Аннотация

В статье рассматриваются уникальные особенности декора памятников архитектуры и их место в системе всемирного наследия.

Abstract

The article discusses the unique features of the decorations used in architectural monuments and their place within the framework of world heritage.

Kalit so‘zlar

Koshin, ustun. Peshtoq, gumbaz, muqarnas, girix, islmiy, ganch, panjara, karvonsaroy, arkali ravoq, guldasta.

Ключевые слова

Плитка, столб. Крыльцо, купол, мукарнас, гирих, исламский, ганч, перила, караван-сарай, арочное крыльцо, букет.

Keywords

Tile, pillar. Porch, dome, muqarnas, girih, Islamic, ganch, railing, caravanserai, arched porch, bouquet.

Kirish

O‘rta Osiyo va jumladan O‘zbekistondagi me‘moriy yodgorliklar jahon miqyosidagi tarixiy-madaniy obidalarning uzviy bir qismi bo‘lib, bashariyat

o‘tmishining eng noyob durdonalari hisoblanadi. Ular tariximizning mahobatli shohidlarigina bo‘lib qolmay, ulug‘vorligi-yu muhtasham bezaklari tufayli nodir san’at asarlari qatoridan munosib o‘rin egallagan.

Binobarin, O‘rta Osiyo me‘moriy obidalarini butun insoniyatning beqiyos boy xazinasi sifatida nihoyatda qadrlanishi ham bejiz emas. Bunga er yuzining turli chekkalaridan kelayotgan sayyohlar oqimi ayniqsa Mustaqillik davrida yildan-yilga ko‘payib borayotgani yaqqol dalildir.

Asosiy qism

Butun dunyo boy tariximizning hashamatli obidalarini tomosha qilib, cheksiz hayratga tushayotganini ko‘rar ekanmiz, ota-bobolarimizning bebaho ilmi-yu tengsiz san’atidan har qancha faxrlansak arziydi, albatta. Biroq, bu masalaning faqat bir tomoni, xolos. Ajdodlarimizning buyuk yutuqlaridan g‘ururlanish hissi ayni paytda biz avlodlarning zimmamizga shunga yarasha mas’uliyat yuklashini ham aslo-aslo unutmasligimiz zarur.

Aynan shu masalada hozirgi ahvol qanday? Tarixiy me‘moriy obidalarni muhofaza qilish zaruriy talab darajasidami? Madaniy yodgorliklardan shu kunlarda foydalanish qay darajada yo‘lga qo‘yilgan? SHu sohalarda olib borilayotgan sa’y-harakatlarning barchasi ham qoniqarli ahvoldami kabi savollarga javob topish maqsadida bo‘yicha akademik Botir Boltaev takliflari o‘rganib chiqilganda,

quyidagilarni anglash mumkin:

Mavjud amaliyotga muvofiq, muhofazaga olingan me‘moriy yodgorliklar masjid, karvonsaroy, madrasa va boshqalar, har xil turdagi mehmonxonalar hamda ishlab chiqarish birlashmalariga ijaraga beriladi. Ammo bu o‘rinda gap binolardan foydalanishdan ham ko‘ra, ularga



nisbatan bo'lgan, darajalanmagan yondoshuvda, munosabatdadir.

“Yor Muxammad devon – (Said Ota)” masjidi mexrobi atrofiga ishlangan naqshinkor namayoni. (B. Boltaev bo'yicha)

Er osti suvlari tuproq namligini keltirib chiqaradi, bu esa o'z navbatida bevosita tuproqqa bog'langan poydevor orqali bino poydevorlariga, devorlariga, tom, gumbaz qoplamalariga xam o'z tasirini va kuchini vaqt o'tishi bilan yaqqol ko'rsatadi. Bu holatlarni oldini olish uchun bino qurilishida chora-tadbirlar ko'riladi, yani asosan binoning er bilan birlashgan qismida joylashgan gidroizolyasiya (qadimgi imoratlarda) 1-6 sm qalinliqda “Ko'l qamishi”(Xorazm voxasida keng tarqalgan zaxkashlar ichida o'sadigan usimlik), marmar tosh, tut daraxtidan tayyorlangan brus kabi materiallardan foydalanilgan. Ammo bu ko'rilgan choralar ham namlikning kopelyar orqali oqimini 100% saqlab qola olmaydi. Bu jarayon esa birinchi navbatda binoning sokl qismida ishlatilgan g'ishtlarni va uning yuzasiga yopishtirilgan koshin pilitkalarni emrilishiga sabab bo'ladi.



Endi yuqorida keltirilgan omillar tasirida qisman yoki to'la emirilgan koshin pilitkalarni ta'mirlash yoki qayta tiklash muommolariga to'xtalamiz. Birinchidan bu topshiriqni xozirgi kunda faoliyat ko'rsatib kelayotgan kulolga buyursak -bizgacha etib kelgan koshin satxiga ishlatilgan rang tusi va jilosini eskisiga moslash zarur hisoblanadi. Rang tusi va jilosini moslaganida oraliqda saqlanib qolgan butun koshinni sindirmay saqlab qolish va atrofini yangi tayyorlangan koshin bilan to'ldirish ham ustadan katta mahorat va sabrni talab qiladi. Vujudga kelgan muammo shundan iboratki, bizgacha qisman etib kelgan panno, restavratsiya

qilinishi o'rniga to'liq buzib tashlanadi va o'rniga zamon texnologisida ishlab chiqarilgan koshin o'rnatiladi. Yangilangan panno qancha saqlanishiga esa hech kim kafolat bermaydi.

Taklif qilmoqchi bo'lgan variantimiz bu panno uchun juda mos bo'lmasada, saqlanib qolgan pannoni yo'qotish mumkin emas. Malumki quyosh nuri ko'pgina rang tusini so'ndiradi. Koshin rangi tayyorlanayotgan davrida oldindan katta xaroratli olovda toblangan bo'lib quyosh nurida so'nmaydi. Bizlar taklif qilgan va amalda bajarilgan, restavratsiya qilingan panno tabiiy yoritilmagan xonada bajarilgan bo'lib bir necha yildan beri o'zgarmasdan saqlanmoqda, undan tashqari uning xolati 200 yil evval qurilgan panno bilan bir xil va xuddi shunday xolatda xaligacha saqlanmoqda.

(Said Ota) masjidida Namoiish qilinayotgan panno joylashgan xona tabiiy yoritilganligi sabab qo'llanilgan epoksid elimli bo'yoqni bu joyda qo'llashni tavsiya qilinmagan, chunki bu bo'yoq rangi quyosh nuri tasirida so'nmasligi kafolatlanmagan.

Xulosa

Demak, koshinlarni ta'mirlash texnologiyalariga to'xtaladigan bo'lsak birinchi navbatda koshinlarni saqlangan asl qismlaridan andoza olish zarur. Olingan andoza bo'yicha naqsh qog'oziga nomoyonga 1x1 masshtabda naqsh kompozitsiyasi, ya'ni ulgu tayyorlash kerak bo'ladi. Tayyorlangan koshin plitkalariga ulgu naqshini tushirib (ko'mir kukuni yordamida) keyin mis aralashma bo'yoqlar yordamida naqsh konturlari va naqshlar ketma-ket tartibda chiziladi. Konturlar ichiga mos ranglash ishlari bajariladi. Tayyorbo'lgan koshinlar yuziga glozur (shisha eritmasi) surilib yana pechkaga qizdirilib tayyorlanadi. Tayyor bo'lgan plitkalarni raqamlari bo'yicha ketmaketlikda ta'mirlash joyiga maxsus kley qorishmasi bilan yopishtiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. N.A.Samigov, E.S.Htark, A.A.Tulaganov, X.B.Fisher-“Опыт реставратсии пamyatnikov архитектуры”, Tashkent-Ieymer-2007.

2. Saipova M. “O‘zbekiston o‘rta asr me‘moriy bezaklarida ramziy ifodalarning rivojlanishi” nomli dissertatsiyasi. Toshkent-2021
3. Atoshov S. B. “Ichan qal’a ob’ektlari arxitekturasi va ularning tipologik echimidagi o‘ziga xos jihatlar” nomli dissertatsiyasi. Toshkent-2024
4. Mamatmusaev Tohir SHaydulovich. “O‘zbekiston tarixiy shaxarlarining shakllanishi va rivojlanishi (DSc) Toshkent-2019
5. Birlashgan boshkaruv rejasi 2017-2022 Ichan Qal’a, Umumjahon madaniy merosi
6. Durdieva G.S “Ma’ruza shaklidagi arxitektura bo’yicha fan doktori dissertatsiyasi” (DSc) Toshkent 2017 yil
7. Adilov, Z. (2021, June). Issues of improving tourist opportunities in namangan region. In konferensii.
8. SHamsiev Z. Gumbazlar xaqida. «Hayot va iqtisod» jurnali, 1991 yil

ICHAN QAL’A MEMORCHILIKDA ISHLATILGAN KOSHINLAR TAHLILI (PAHLAVON MAHMUD MAQBARASI MISOLIDA)

Atoshov Sanjar Bahodirovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası dotsenti, arx.f.f.d (PhD)

Annotatsiya

Ichan Qal’ada joylashgan Pahlavon Mahmud maqbarasida ishlatilgan bezaklar, xususan koshinlarning ta’irlash jarayonlari tahlili to’g’risida fikr boradi.

Аннотация

В данной статье рассматривается анализ декора мавзолея Пахлавана Махмуда, расположенного в Ичан-Кале, и, в частности, процессы ремонта плитки.

Abstract

This article discusses the analysis of the decoration used in the Pahlavan Mahmud Mausoleum, located in Ichan Qala, and in particular the repair processes of the tiles.